

SHAHARLARDA SODIR ETILAYOTGAN O'ZGALAR MULKINI TALON-TOROJ QILISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI: TAHLIL, MUAMMO VA YECHIM

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini ta'minlash kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada shaharlarda sodir etilayotgan o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar, xususan, o'g'rilik, firibgarlik, talonchilik, bosqinchilikning bugungi kundagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari, o'ziga xos xususiyatlari, ularning sabablari va shart-sharoitlari tasniflangan holda o'rganilgan hamda ushbu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek bu turdagi jinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish bo'yicha muayyan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Chilonzor, o'g'rilik, firibgarlik, talonchilik, bosqinchilik, talon-toroj qilish, miqdor va sifat ko'rsatkichlari, sabab va shart-sharoitlar.

Abstract. The article deals with the quantitative and qualitative indicators of crimes related plundering of other people's property committed in the cities, in particular theft, fraud, robbery, mugging, their specific features, their causes and conditions that are studied in classified form and certain proposals and recommendations are given to eliminate these causes and conditions, as well as to increase the effectiveness of prevention of these types of crimes.

Keywords: Chilonzar, robbery, fraud, looting, invasion, quantity and quality indicators, causes and conditions.

Muayyan turdagi jinoyatlarning kriminologik tavsifi haqida so'z bor-ganda, odatda, bu jinoyatlarning sifat va miqdor ko'rsatkichlari, ularning sabablari va shart-sharoitlari, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsiga doir ma'lumotlar yig'indisi tushuniladi. Binobarin, jinoyatchilik, uning sabablari va shart-sharoitlari, jinoyatchi shaxsi kriminologiyani predmetiga kiruvchi asosiy masalalar hisoblanadi.

Jinoyatchilikning sabablari jamiyatda uning ijtimoiy hodisa sifatida bo'lishini, alohida turlari mavjudligini, shaxsiy darajada esa muayyan jinoyatning sodir qilinishini taqozo qiladigan (belgilab beradigan) hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisi sifatida tushunilsa, jinoyatchilikning sharoitlari – shunday hodisa va jarayonlarki, ular o'zlaricha jinoyatchilikni keltirib chiqarmaydi, biroq ular jinoyatchilikning jamiyatda bo'lishini taqozo qiluvchi, o'sishini ta'minlovchi sabablarga ta'sir qilish va ko'maklashish bilan ularning yuz berishini ta'minlaydi [1].

Jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari bilan bir qatorda jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar kategoriyasi ham mavjud bo'lib, professor I.M. Maskevich ta'kid-laganidek, u nafaqat bevosita jinoyatni sodir etgan muayyan

jinoyatchi shaxsi bilan [2], qolaversa uning jabrlanuvchisi bilan ham bog'liqdir.

Jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari jinoyatchilikning mavjudligini taqozo etuvchi va uni oziqlantiruvchi hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisi sifatida namoyon bo'lsa, jinoyatning sabablari va shart-sharoitlari esa muayyan jinoyatni keltirib chiqarishga, uning sodir etilishiga imkon beruvchi hodisa, voqea, jarayonlar zanjiridan iborat.

Jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari bevosita jamiyatda kechayotgan hodisa, voqea va jarayonlar bilan bog'liq ekan, demak bu hodisa, voqea va jarayonlarning o'zgarishi jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari hamda, o'z navbatida, jinoyat-chilikning tarkibi, sifat va miqdor ko'rsatkichlari o'zgarishiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, jamiyatda axloqsizlik, madaniyatsizlik va o'zaro hurmatsizlik muhitining ildiz otishi, shuningdek ma'naviy tarbiyadagi kamchiliklar zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar, jumladan qotillik, tan jarohati yetkazish, nomusga tegish kabi jinoyatlarning ko'p sodir etilishiga zamin yaratsa, kambag'allik, ishsizlik, boqimandalik va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ko'payishi mulkiy jinoyatlarning ortishiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shaharlardagi va qishloqlardagi jinoyatchilik tarkibi va darajasi ularning sabablari va shart-sharoitlariga monand tarzda muayyan darajada bir-biridan farq qiladi. Xususan, shaharlarda sodir etilayotgan o'zgaralar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar doirasi shahar hududining ijtimoiy-demografik, iqtisodiy, jug'rofiy va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xoslikka ega.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq, o'zgaralar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarga bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish, firibgarlik va o'g'rilik jinoyatlari kiradi hamda bu turdagi jinoyatlar mamlakatimizda, xususan, uning shaharlarida qayd etilgan jami jinoyatlar tarkibida katta miqdorni tashkil etadi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilning o'tgan sakkiz oyida Toshkent shahrida jami 10 003 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, uning tarkibida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar sifatida o'g'rilik 2394 tani, firibgarlik 1676 tani, talonchilik 126 tani va bosqinchilik 32 tani tashkil etgan. Shuningdek, aniqlanadigan jinoyatlar sifatida tovlamachilik 53 tani, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish 73 tani va o'g'rilik 65 tani tashkil etgan.

Yuqoridagi tahlillar ko'rsatganidek, o'zgaralar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlar tarkibida o'g'rilik jinoyatining hisssasi katta. Mazkur jinoyat boshqalaridan farqli o'laroq, ma'lum bir davrda jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va insonlarning axloqiy tamoyillariga ko'p jihatdan bog'liqdir [4].

O'rganish va tahlillar bugungi kunda respublikamiz shaharlarida qayd etilayotgan o'g'rilik jinoyatlari: asosiy qismi jamoat joylari, jumladan ko'chalarda, odamlar gavjum bozorlar, savdo-ko'ngilochar markazlarida sodir etilishi; ko'p hollarda jinoyatchilar tomonidan "yo'l-yo'lakay", vaziyatdan foydalangan holda sodir etilishi; uyali telefon va velosiped (samokat)lar ko'proq o'g'irlanishi; ularni sodir etuvchi shaxslar ko'p hollarda jabrlanuvchining o'z mulkini saqlashdagi loqaydligi va beparvoligi, uxlayotganligi yoki unutib qoldirishidan foydalanishi kabilar bilan xarakterlanadi.

Shaharlarda qayd etilayotgan firibgarlik jinoyatlari esa bugungi kunda: telefon qilish orqali yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xildagi yutuqlar, imtiyozlar va bonuslarni taklif etish, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi bank xodimi sifatida murojaat qilish orqali plastik kartadan pullarni yechib olishga urinish yoxud yaqin kishilaridan kimningdir favqulodda og'ir ahvolga tushib qolgani va unga yordam ko'rsatishni ro'kach qilib, aldash, ishonchga kirishga harakat qilish holatlari ko'payganligi; firibgarlar ko'p hollarda sotish, sotib olish, bir marta telefon qilish yoki boshqa harakatlar orqali uyali telefon apparatlarini noqonuniy egallashi; "OLX" va boshqa Internet platformalar orqali narsa va buyumlarni sotish yoki xizmat ko'rsatishda aldash va ishonchni suiiste'mol qilish holatlari oshib borayotganligi; tadbirlar natijasida aniqlangan jinoyatlarda haydovchilik guvohnomasini olib berishni va'da qilish, biror-bir shaxsga nisbatan yuritilgan jinoyat ishini hal qilib berish yoki jazo chorasini yengillashtirib berishni va'da qilib sodir etilayotgan firibgarlik holatlari katta hissani tashkil etishi bilan xususiyatlidir.

Shaharlarda qayd etilayotgan talonchilik jinoyatlariga xos xususiyatlar: ularning asosiy qismi ko'cha va jamoat joylarida sodir etilishi; uyali telefonni bir martalik foydalanish uchun so'rab olish hamda jabrlanuvchining hushyorlikni yo'qotishi va loqaydligi oqibatida uni olib qochib, egallab olish holatlari ko'p uchrayotganligi; jinoyatni sodir etuvchi shaxsning o'ziga nisbatan jismonan kuchsizligi va ojizligi ko'rinib turgan shaxsga nisbatan sodir etilishi kabilarida namoyon bo'lmoqda.

Shaharlarda sodir etilayotgan o'zgaralar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlari quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ijtimoiy-demografik va iqtisodiy sohadagi sabablar va shart-sharoitlar:

kambag'allik muammosi va aholi orasida ishsizlarning ko'pligi, shuningdek Toshkent shahri hududiga boshqa viloyatlardan ish izlab keluvchi shaxslar oqimining yuqoriligi, savdo va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarda norasmiy mehnat qilish uchun ehtiyoj va sharoitning mavjudligi hamda bu toifa shaxslar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish darajasining yuqoriligi. Masalan, Chilonzor tumanida qayd etilgan jinoyatlarning 136 tasi (9,5 %)

ishsizlar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, jami jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning 397 nafari (50 %)ni boshqa viloyatlardan kelgan, 235 nafari (30 %)ni Toshkent shahrining boshqa tumanlaridan kelgan shaxslar va 16 nafari (2 %)ni chet el fuqarolari tashkil etadi. Zero, XIX asrning ko'plab taniqli kriminologlari jinoyat asosan kambag'allikning oqibatida yuzaga kelishini ta'kidlaydilar. O'zini yetarli darajada ta'minlay olmaydigan odamlar va ularning oilalari, odatda, o'g'irlik, fohishalik kabi jinoyat va huquqbuzarliklarning qurboniga aylanishadi. Ayniqsa, keng tarqalgan ishsizlik jinoyatchilik darajasini yanada oshishiga olib keladi [5];

oiladagi ijtimoiy muammolar, xususan, moddiy yetishmovchilik va ishsizlikni ayrim shaxslarning qonuniy yo'llar bilan hal eta olmaganligi oqibatida yuzaga kelgan moddiy ehtiyojni qondira olmaslik holatini noqonuniy, g'arazli yo'llar bilan hal etishga urinishi;

jamoat joylari, bozor, avtovokzal va boshqa joylarga kelib-ketuvchi aholining oqimi yuqoriligi, aholi zich harakatlanishi, harakatlanish yo'llari va yo'laklarida noqonuniy savdo holatlari yo'lga qo'yilganligi, qolaversa ularning atrofida tungi yoritilmagan va nazoratga olinmagan ovloq joylarning mavjudligi;

pasport tizimi qoidalarini buzish holatlari o'sib borayotganligi, turar joylarni boshqa hududlardan kelgan shaxslar va talabalarga ijaraga berish jarayonidagi munosabatlarning yetarlicha tartibga solinmaganligi, ijaraga beruvchi va ijarada turuvchilarni nazorat qilish tizimining yo'qligi hamda bu holatlar jinoyatlar, xususan, o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishiga olib kelayotganligi.

2. Ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy sohadagi sabablar va shart-sharoitlar:

oilalarda ona-onalar, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan farzandlarni tarbiyalashdagi xato va kamchiliklar, xususan, bolalarning halollik, mehnatsevarlik, o'zganing mulkiga ko'z olaytirmaslik kabi sharqona qadriyatlar asosida emas, balki xudbinlik, olg'irlik, boqimandalik kabi illatlarga yetaklovchi usul va vositalar yordamida tarbiyalanayotganligi;

ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, jumladan farzandlarining o'qish vaqtida kompyuter o'yini klublariga, tungi

vaqtlarda ko'ngilochar (dam olish) joylarga borishiga yo'l qo'yib berish holatlari ko'payib borayotganligi. Masalan, Chilonzor tumanida 2024-yilning 8 oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (MJtK 47-m.) 200 ta (30 %), voyaga yetmagan shaxsning ko'ngilochar (dam olish) joylarda tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish (MJtK 188²-m.) 14ta (44 %) ko'p aniqlangan;

yoshlar bilan ishlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va manzilli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish va ish bilan ta'minlash sohasidagi kamchiliklar hamda buning oqibatida uyushmagan yoshlar tarkibida muammoli va jinoyat sodir etishga moyil toifadagi shaxslar hissasining ortib borayotganligi. Buni Chilonzor tumanida qayd etilgan jami jinoyatlarning 461 tasi (34 %) yoshlar tomonidan sodir etilgani hamda jami uyushmagan yoshlarning 240 nafari og'ir toifadagi yoshlar, 333 nafari jinoyat sodir etishga moyil yoshlar, 275 nafari ishsiz yoshlar va 201 nafari migratsiyadagi yoshlar ekanligida ham ko'rish mumkin;

jamiyatda kechayotgan globallashuv va "ommaviy madaniyat" ta'siri kuchayib borishi jarayonida turli toifadagi shaxslar va guruhlar o'rtasida yangi ko'rinishdagi ziddiyatlar, nizolar hamda ularni jinoiy yo'l bilan hal qilishga intilish holatlari yuzaga kelayotganligi, qolaversa, g'ayriaxloqiy xulq-atvorli shaxslar a'zo bo'lgan ijtimoiy kanallar orqali ularni aldab chaqirish va ularga nisbatan talonchilik jinoyatlari sodir qilishning yangicha mexanizmi shakllanayotganligi. Masalan, 2024-yil 3-mart kuni uyushgan guruh tomonidan "Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi "Toshkent tema" guruhi a'zosi aldab chaqirilib, urib-do'pposlanib, besoqolbozlik qilib kelganligi haqida majburan gapirtirib, telefonga videotasvirga tushirilib, uni Internet tarmog'ida tarqatmaslik evaziga 1.000 AQSH dollari tovlamachilik yo'li bilan talab qilingan;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni, shuningdek kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash va muomalaga kiritish jinoyatlarining ko'payib borayotganligi, unga tobelikning yuzaga kelishi oqibatida pulga bo'lgan ehtiyoj sababli shaxslarning o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishga qo'l urishi. Xususan, Chilonzor tumanida 2024-yilning 8 oyida giyohvandlik vositalari va

psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 %ga o'sgan bo'lsa, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash va muomalaga kiritish bilan bog'liq 35 ta holat aniqlangan.

3. Tashkiliy-boshqaruv sohasidagi sabablar va shart-sharoitlar:

hududdagi jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash uchun kuch va vositalarni taqsimlash bo'yicha kunlik qarorlarni tayyorlashdagi kamchiliklar, jinoyatlar, xususan, o'g'rilik, talonchilik va firibgarlik ko'p sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan yo'nalishlarning patrul-post xizmati naryadlari tomonidan to'liq qamrab olinmasligi;

odamlar gavjum jamoat joylarida yuqori darajadagi migratsion oqim (masalan, Toshkent shahar Chilonzor tumanida joylashgan "Abu Saxiy" bozori hududida haftaning tegishli kuniga qarab 10-18 ming, "Chilonzor" metro bekati atrofida 15-20 ming, "Xalqlar do'stligi" saroyi atrofida 10-15 ming, shaharlararo qatnovchi avtobuslar avtovokzali va uning atrofida 6-7 ming nafar yo'lovchilarning harakatlanishi)ni tartibga solish va nazorat qilish sohasiga zamonaviy raqamli texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi;

jinoyiy-huquqiy statistikani yuritishda yirik ko'ngilochar maskanlar va bozorlarda sodir etilgan jinoyatlarning mahalla hisobiga o'tkazilgani oqibatida profilaktik chora-tadbirlar yo'nalishi noto'g'ri tanlanishi, shuningdek mazkur obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi yetarli darajada emasligi;

ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari tomonidan ilgari sudlanganlar, shu jumladan ichki ishlar organlari ma'muriy nazorati yoki profilaktik hisobida turgan shaxslar bilan olib borilayotgan profilaktik ishlardagi kamchiliklar oqibatida bu toifa shaxslar tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilayotganligi. Masalan, Chilonzor tumanida 2024-yilning 8 oyida qayd etilgan o'g'rilik jinoyatlarini sodir etgan jami 222 nafar shaxsning 43 nafari (19,4 %) ilgari sudlangan shaxslar bo'lib, ularning 18 nafari (8,1 %) jazo muddatini o'tayotgan shaxslar hisoblanadi;

tergovchilar va surishtiruvchilar tomonidan yuritilgan jinoyat ishi yakuni bo'yicha jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularga imkon

bergan shart-sharoitlar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlar va muassasalarga taqdimnomalar kiritishdagi kamchiliklar, jumladan taqdimnomalar va ularning ijrosi yuzasidan kelib tushgan ma'lumotnomalar tahlili va hisobi yuritilmasligi, ayrim taqdimnomalarda jinoyatlarning asl sabablari va shart-sharoitlari chuqur aniqlanmasdan, yuzaki, shablon tarzida rasmiylashtirilishi, taqdimnoma jinoyat sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish uchun mas'ul organ va muassasalarga emas, balki ularning yuqori turuvchi yoki umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi organlariga yuborilishi.

4. Viktimologik sabablar va shart-sharoitlar:

kishilarning pul, narsa, buyum va boshqa mulklarini saqlashda ehtiyotsizligi va beparvolikka yo'l qo'yishi, uylarning yo'laklari, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida ularni saqlash uchun maxsus joylar tashkil etilmaganligi;

jabrlanuvchining noqonuniy maqsadlarini amalga oshirish, shuningdek savdo, xizmat ko'rsatish, ta'lim olish, davolanish va boshqa sohalarida muayyan maqsadga tez va navbatsiz erishish uchun boshqa kishi (firibgar)larga murojaat qilishi natijasida firibgarlikning qurboniga aylanishi;

ayrim shaxslarning uyali telefonini bir martalik foydalanish uchun so'rab murojaat qilgan har qanday boshqa shaxslarga ishonib berishi hamda hushyorlikni yo'qotishi, loqaydligi oqibatida talonchilik qurboniga aylanib qolayotganligi. Binobarin, shu doirada tadqiqot olib borgan professor V.V. Veklenko va dotsent M.A. Bugera shaxslarga bunday vaziyatda boshqalar qanchalik talab qilinmasin telefonni vaqtincha foydalanishga bermaslikni, agar favqulodda qo'ng'iroq qilish zarurati tug'lsa ham uni o'zlari qilishlarini tavsiya qiladilar [6];

velosiped, skuter, elektromoped va samokatni egalari tomonidan ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklari, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari oldida qarorsiz, qulflamasdan qoldirishi oqibatida ularning o'g'irlanishi uchun sharoit yaratishi;

avtotransport vositalari egalarining transport vositasini ochiq qoldirishi yoki qattiq charchoq natijasida uxlab qolishi oqibatida undagi pul, buyum va qimmatbaho narsalar o'g'irlanishiga sharoit yaratib berishi.

Keltirilgan o'zgalar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlari faqatgina Toshkent shahrining

Chilonzor tumanigagina emas, poytaxtimizdagi boshqa tumanlar, qolaversa, mamlakatimizning viloyat markazlari va boshqa katta shaharlari uchun ham xosdir. Ularni bartaraf etish esa respublikamizdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalardan tizimli huquqiy, tashkiliy, amaliy va moddiy-texnik choralarni ko'rib borishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, shaharlarda o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarini bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, jinoiy-huquqiy elektron statistikasi yuritish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan mahallalarda sodir etilgan jinoyatlarning hisobini yuritish tartibiga tegishli o'zgartirish kiritib, jinoyatchilik statistikasida mahalladagi jinoyatlarni quyidagicha ikkiga ajratib qayd etish tartibini joriy etish:

mahallaning aholi yashaydigan hududidagi jinoyatlar;

hududdagi istirohat bog'lari, xiyobonlar, bozorlardagi jinoyatlar.

Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi operativ tahlillarni amalga oshirish uchun jinoiy-huquqiy elektron statistikada har bir sodir etilgan jinoyat va uni sodir etgan shaxs bo'yicha ko'rsatilishi shart bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni aniq belgilab berish lozim.

Ikkinchidan, jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida taqdimnoma kiritish tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritish:

jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida taqdimnomalar hamda ularning ijrosi yuzasidan kelib tushgan ma'lumotnomalarning prokuratura, DXX, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan hisobini va tahlilini yuritish tartibi;

jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida taqdimnomalarni O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutiga yuborish tartibi;

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutida jinoyatning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida taqdimnomalarni o'rganish, ilmiy tahlil qilish asosida tegishli takliflar va ilmiy xulosalar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish uchun taqdim etish tartibi.

Uchinchidan, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi, ulardagi kriminogen vaziyat uchun bevosita javob beruvchi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimiga kiruvchi "Milliy gvardiya profilaktika inspektori" lavozimini joriy etish va faoliyatini yo'lga qo'yish.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 248-moddasi 4-qismi 2-bandiga tegishli o'zgartishlar kiritib, profilaktika inspektoriga 159¹-modda (Fuqarolar o'rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar joyi ijaraga berish shartnomasining, tekin foydalanishga berish shartnomasining mavjud emasligi yoxud davlat soliq organlarida ijaraga berish shartnomasining majburiy hisobga qo'yilishiga rioya etmaslik) va 164-modda (Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish)ning quyidagi qismlari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomani tuzish vakolatini berish:

birinchi qismi – savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish;

ikkinchi qismi – savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini ancha miqdordagi qiymatda buzish;

uchinchi qismi – savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini ko'p miqdordagi qiymatda buzish;

to'rtinchi qismi – yonilg'i-moylash materiallari bilan, qo'lda savdo qilish yoxud shaharlarda belgilanmagan joylarda qo'lda savdo qilish;

oltinchi qismi – energetik ichimliklarni o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga realizatsiya qilish.

Beshinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga doir amaldagi qonunchilik hujjatlariga ma'muriy hududda quyidagi obyektlarga sifatli kuzatuv kameralarini o'rnatish va ularni mahalla huquq-tartibot maskani (ichki ishlar organlari tayanch punkti) va tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (ichki ishlar boshqarmasi, bo'limi) navbatchilik qismlariga integratsiya qilishning majburiy tartibini belgilash:

umumiy ovqatlanish shoxobchalari;
savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari;
tungi klublar;
cho'milish havzalari;
odamlar gavjum bo'ladigan va faol harakatlanuvchi jamoat joylari.

Oltinchidan, odamlar gavjum bo'ladigan jamoat joylarida sifatli videokamera bilan jihozlangan zamonaviy dron orqali profilaktik-kuzatishni yo'lga qo'yish, shuningdek "SOS" tezkor chaqiruv tugmalarini o'rnatish.

Yettinchidan, sodir bo'lgan jinoyatni uning geolokatsiya nuqtasida belgilash, sodir etilgan jinoyat haqidagi zarur ma'lumotlarni aks ettirish orqali "qaynoq nuqtalar" va kriminogen hududlarni aniqlash, bunday hududlarga kuch va vositalarni jalb etish imkonini beradigan tuman

(shahar) ichki ishlar organlarining Tezkor boshqaruv markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni maxsus dasturiy tizim bilan ta'minlash. Tuman (shahar) hududidagi ichki ishlar bo'lim (bo'linma)lari va huquq-tartibot maskanlaridagi navbatchilik qismlarini ushbu Tezkor boshqaruv markazlari bilan, markazlarni esa Toshkent shahar IIBB va hududiy ichki ishlar organlaridagi mavjud Yagona tezkor boshqaruv markaziga integratsiyalash.

O'ylaymizki, keltirilgan taklif va tavsiyalar kelgusida shaharlarda o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarini bartaraf etishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova, I.Yu.Fazilov; mas'ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 272 b.
2. Мацкевич И.М. Причины преступлений // Человек: преступление и наказание. – 2013. – № 3 (82). – С. 30-33.
3. Бубербаев Н.Д. О некоторых показателях состояния преступности города Астаны // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2018. №3 (79). – С. 42-46.
4. Тимошина Е.М. Криминологическая характеристика краж // Общество и право. – 2010. – №4 (31). – С. 206-213.
5. Абзалова Х.М., Тохтабакиев К.А. Преступление и причины его возникновения // Universum: экономика и юриспруденция. – 2022. – № 4 (91). – С. 16-18.
6. Бугера М.А., Векленко В.В. О мерах предупреждения хищений сотовых телефонов // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2021. – №4 (92). – С. 63-67.

